

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKDA QO‘LLANADIGAN O‘XSHATISHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA

Hamzayeva Nilufar Hafizjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-kurs talabasi
nilufarhamzayeva@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada tilshunoslikning katta bir qismi bo‘lgan shevashunoslikda, badiiy adabiyot va she‘riyatda qo‘llaniladigan ayrim o‘xshatishlar va ularning tilimizda faolligi, ayrim o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Annotation.

This article discusses some of the analogies used in linguistics, fiction, and poetry, which are an important part of linguistics, and their activity in our language, as well as some of their peculiarities

Kalit so‘zlar:

lingvokulturologiya, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyotshunoslik, o‘xshatish, sheva, erkin o‘xshatish, turg‘un o‘xshatishlar.

Keywords:

lingvoculturology, linguocultural studies, literary criticism, analogy, dialect, free analogy, constant analogy.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida o‘xshatishlardan har ikki sohada faol unsur sifatida foydalaniladi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda o‘xshatishlar faol bo‘lib, dialektologiyaning ajralmas bir qismi sifatida tadqiq etiladi. Lingvomadaniyatshunoslikka oid adabiyotlarda o‘xshatish til va madaniyat bog‘liqligini o‘rganishda asosiy tadqiq obyektlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Zeroki, "madaniyat va o‘xshatishni bir-biridan farqli ravishda o‘rganib bo‘lmaydi" - deb talqin etiladi. [1. Maslova V. Lingvokulturologiya, 2001].

O‘xshatishlarning o‘zi qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Erkin o‘xshatishlar.

2. Turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar. [2. N. Maxmudov, D. Xudoyberganova "O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati" Toshkent -2013]. Badiiy – estetik jihatidan erkin o‘xshatishlar ijodkorning bor mahoratini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Ayni shu o‘xshatishlar orqali adiblar badiiy tasavvurlarini namoyon etadi. O‘xshatish tasvirlari esa xilma-xil ko‘rinishda namoyon etiladi. Va tasvir kitobxon ko‘z oldida jonli ravishda gavdalanadi. Masalan, "**Miryoqub ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi**" [3. Cho‘lpon. "Kecha va kunduz", 145-bet]

Keltirilgan misolimiz erkin o‘xshatish bo‘lib, asar qahramoni – Miryoqubning ruhiy holati va fikriy sergakligi objuvoz likopiga qiyoslanmoqda. "Objuvoz – suv kuchi bilan harakat qiladigan sholi oqlaydigan maxsus qurilmadir. Uning likopi esa tez-tez harakat qilib sholini to‘kib turuvchi moslamasidir. [4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 72-bet]

Yoki: "**So‘fining tani shu topda Arabiston tog‘larining saratondagi toshlariday qizib yonardi**". (Cho‘lpon, "Kecha va Kunduz", 279-bet)

Ushbu o‘xshatishda esa serquyosh o‘lka, yer yuzining eng jazirama issiq bo‘ladigan joylaridan biri bo‘lgan Arabiston tog‘larining issiqligi So‘fining holatini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Yoki Cho'lponning eng mashhur she'ridan olingan quyidagi misralarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak:

***Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku...***

[5. Cho'lpon, "Yana oldim sozimni", 399-bet].

Ushbu misralarda ijodkor o'zining cheksiz hayratini ifodalay ekan, muhabbatni – keng, bemisl saroyga va o'zini esa asrlik toshlarga qiyoslab tasvirlagan va aynan shu tasvir orqali ijodkor individual xususiyatga ega mualliflik o'xshatishini yaratmoqda.

Turg'un o'xshatishlarda esa o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, ular garchi ma'lum shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan doimiy ifoda sifatida tilda turg'unlashib boraveradi. Masalan: ***Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma'lum. (Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 167-bet)***

Mazkur misradagi "otning qashqasiday" birikmasi turg'un birikma bo'lib, badiiy asardagi qahramon fe'li-sajiyasini bo'rttirib – ta'sirchan ifodalashga xizmat qilmoqda.

O'xshatish – shunchaki atrofdagi olamni nomlash vositasi emas, balki uni baholashning ham yorqin usuli bo'lib xizmat qilgan.

Tilshunoslik va shevashunoslikda o'xshatishlar faollikdagi turg'un o'xshatishlar hisoblanadi. Masalan: "labi g'unchaday", "og'zi angishvonaday" o'xshatishlari turg'un o'xshatishlar sirasiga kiradi. Asosan, bunday o'xshatishlar ayol va qizlarning go'zalliklarini ifodalashga xizmat qiladi. [6. Feruza Musayeva. "O'zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi" / "Fan" nashriyoti. Toshkent 2019]

Og'zaki nutq, ya'ni shevalarda faol bo'lgan ba'zi o'xshatishlarni badiiy adabiyotlarda ham faolligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: "Chiroying borida chinoringni top" maqoli [7. O'zbek xalq maqollari, 251-bet] Tog'ay Murodning asarlarida ham uchraydi [8. "Oydinda yurgan odamlar", 224-bet]. Ushbu misralardagi chinor so'zi Yor ma'nosida qo'llanilganidir. Chinor ko'p yillik manzarali daraxt bo'lganligi uchun uni asosan umrga, yigitga, ko'rkamlikka nisbat berilgan holda talqin etishadi. Bu esa o'xshatishlarda ham qo'shimcha ma'no borligini, sinonimik qatordagi birliklar semantik nozikliklar bilan o'zaro farqlangan holda talqin etilishini ko'rsatadi.

Yoki: "Har gulning o'z hidi bor" maqoli (O'zbek xalq maqollari, 187-bet) Tog'ay Murod asarida gul, ma'shuqa, ya'ni ayolga nisbat berilgan holda tasvirlanmoqda. ("Oydinda yurgan odamlar, 230-bet")

Bundan tashqari, o'xshatishlar millat, til, din jihatdan ham farq qiladi. Masalan, bir o'xshatiluvchi narsa bir tilda salbiy, ikkinchi tilda ijobiy xarakterda ifodalanishi ham mumkin.

Hayvon yoki o'simliklar ham o'xshatishning asosini tashkil etadi. Bu esa lingvomadaniyatshunoslikda esa "biomorf kod" deb yuritiladi.

Masalan: O'zbek adabiyotlarida toshbaqa uzoq umrni ifodalaydigan obraz bo'lsa, shevalarimizda esa toshbaqa sekin yurganligi uchun "toshbaqaday imillaydi" iborasi qo'llaniladi. Lekin slavyan xalqlari mifologiyasida u Iso Masihni (Xristos) mehmon qilmagan xasis va la'natlangan maxluq deya ta'riflanadi (ukrain, serb, xorvat, bosniya va bolgarlarda). Nigeriya va Afrikaning ayrim qabilalarida toshbaqa tuproq va hosildorlik ramzi. Hindlarning Veda mifologiyasida ilohiy donihsmand – rishi. Yaponiyada toshbaqa uzoq umr va baxt ramzi sifatida talqin etiladi. Qadimgi yunonlar uchun esa hosildorlik ramzi sifatida ularning adabiyotlarida talqin etiladi.[9. www.cherepaha.info...] O'zbek adabiyoti vakili bo'lgan Isajon Sultonning "Ot yoli, toshbaqa bolasi, somon parchasi"[10. Isajon Sulton. Asarlar, 76-bet] hikoyasida esa toshbaqa – sermashaqqat umr yo'li ramzi sifatida talqin etiladi.

Bunday o'xshatishlarni badiiy adabiyotlarda ham, tilshunoslikda, xususan shevalarimizda ham juda ko'p uchratishimiz mumkin. Ammo o'xshatishlar orqali eng ko'p tasvirlanadigan obyekt – bu insonning o'zidir. O'xshatishlar orqali insonning ichki olami, hissiyot va kechinmalari, uning borliq olamga munosabati yuksak badiiy did bilan tasvir etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маслова В. Лингвокультурология. Учебник для вузов. М.: Академкнига. 2001. – 183 с.
2. Маҳмудов Н, Худойберганова Д. Ўзбек шевалярининг лингвомаданий тадқиқи. Т.: “Маънавият”. 2013. – 320 б.
3. Чўлпон. “Кеча ва кундуз”. Тошкент- “ШАРҚ”. 2000. – 288 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3 жилд. Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Т. 2020. – 688 б.
5. Чўлпон. Яна олдим созимни. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – 576 б.
6. Мусаева Ф. Ўзбек шевалярининг лингвомаданий тадқиқи. Т.: Фан. 2019. – 224 б.
7. Ўзбек халқ мақоллари. Тўпловчилар Т. Мирзаев ва бошқалар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. – 512 б.
8. Тоғай Мурод. “Ойдинда юрган одамлар”. Қисса. Т.: “ШАРҚ”. 1994. – 464 б.
9. www.cherepahi.info >hob/chererakhi-v-mifologi.
10. Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2017.- 324 б.